

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL  
XO‘JALIGI VAZIRINING  
BUYRUG‘I

**SHNQ 3.01.07-22 “TURAR JOY, JAMOAT VA ISHLAB CHIQRISH BINO VA  
INSHOOTLARINING TEXNIK HOLATINI O‘RGANISHDA XAVFSIZLIK  
TEXNIKASI” SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARINI TASDIQLASH  
TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 16-sentabrda hisobga olindi,  
hisob raqami 286]**

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-martdagi PF-5963-son “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq buyuraman:

1. SHNQ 3.01.07-22 “Turar joy, jamoat va ishlab chiqarish bino va inshootlarining texnik holatini o‘rganishda xavfsizlik texnikasi” shaharsozlik normalari va qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 1998-yil 19-yanvardagi 6-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan QMQ 3.01.07-98 “Mukammal ta‘mirlashni loyihalashtirishda turar-joy, jamoat va ishlab chiqarish binolarini tekshirish uchun xavfsizlik qoidalari” qurilish me‘yorlari va qoidalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Energetika vazirligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.

4. Ushbu buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Birinchi o‘rinbosar SH. XIDOYATOV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 9-avgust,  
01/2-50-son

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. ABDUXAKIMOV**

2024-yil 5-avgust

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi  
B. YUSUPALIYEV**

2024-yil 4-iyul

**Favqulodda vaziyatlar vaziri A. KULDASHEV**

2024-yil 3-iyul

**Energetika vaziri J. MIRZAMAHMUDOV**

2024-yil 30-iyul

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri B. ISLAMOV**

2024-yil 26-iyul

### **SHNQ 3.01.07-22 "Turar joy, jamoat va ishlab chiqarish bino va inshootlarining texnik holatini o'rganishda xavfsizlik texnikasi" shaharsozlik normalari va qoidalari**

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda SHNQ deb yuritiladi) turar-joy, jamoat va ishlab chiqarish bino va inshootlarini (bundan buyon matnda binolar deb yuritiladi) rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash uchun ularning texnik holatini o'rganishda xavfsizlik texnikasini belgilaydi.

#### **1-bob. Shaharsozlik normalari va qoidalariga havolalar**

1. Mazkur SHNQda quyidagi shaharsozlik normalari va qoidalariga havolalar qo'llanilgan:

SHNQ 2.04.17-19 "Turar joy va jamoat binolarini elektr jihozlari";

SHNQ 3.01.02-23 "Qurilishda xavfsizlik texnikasi".

#### **2-bob. Atamalar va ta'riflar**

2. Ushbu SHNQda quyidagi atama va ta'riflardan foydalanilgan:

**bino** — funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo'lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo'ljallangan, tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi;

**inshoot** — har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish, moddiy qimmatliklarni joylashtirish va saqlash, odamlarning vaqtincha bo'lishi (harakatlanishi), shuningdek uskunalar yoki kommunikatsiyalarni joylashtirish (o'tkazish, ulash) uchun mo'ljallangan, tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi qurilish tizimi;

**binolarning texnik holatini o'rganish** (bundan buyon matnda texnik holatni o'rganish deb yuritiladi) — binolarning hisobiy sxemasini, shikastlanishlarini, nuqsonlarini, deformatsiyalarini va ularning paydo bo'lish sabablarini, ulardan texnik foydalanish qoidalarining buzilganligini aniqlash uchun binolarning holatini to'liq tashqi o'rganish, qurilish konstruksiyalarining texnik holatini baholash uchun yakuniy ma'lumotlarni to'plash, asbob-uskunalar yordamida konstruksiyalarning mustahkamlik ko'rsatkichlarini aniqlash, binolarni rekonstruksiya qilishda konstruktiv yechimlarni tanlash;

**rekonstruksiya qilish** — asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni (yuklamalarni, xonalarning rejalashtirilishini, binoning qurilish hajmini va umumiy maydonini, muhandislik jihatdan jihozlanishini) o'zgartirish bilan bog'liq qurilish ishlari va tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

**mukammal ta'mirlash** — binoning ishonchliligini va unda qulay sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan foydalanish ko'rsatkichlarini yaxshilagan holda qayta tiklash bo'yicha qurilish-ta'mirlash ishlari majmui;

**joriy ta'mirlash** — binoning foydalanish ko'rsatkichlarini saqlab turish bo'yicha ta'mirlash ishlari majmui.

#### **3-bob. Binolarning texnik holatini o'rganish**

3. Binolarni texnik ko'rikdan o'tkazish ishlarini bajarishda himoya kaskalari va arqonlaridan, xavfsizlik kamarlaridan, tom ustida ishlashda esa qo'shimcha ravishda sirpanmaydigan poyabzallardan foydalanish kerak.

4. Tomning texnik holatini o'rganish uchun unga chiqishga faqat cherdak to'sini va tom panjaralarining xizmatga yaroqliligi tekshirilgandan so'ng yo'l qo'yiladi.

Zinapoyalar ilgaklar bilan ishonchli tarzda tom tizmasiga (ikki skatli tom) mahkamlangan bo'lishi lozim.

5. Tomning texnik holatini o'rganishdan avval parapet to'siqning holatini ko'zdan kechirish, eskirgan taqdirda esa uni mustahkamlash choralari ko'rilishi kerak.

6. Tutun quvurlari va ventilyatsiya shaxtalarining texnik holatini o'rganish panjaraga yotqizilgan gorizontol to'shamalar orqali o'tkazilishi kerak.

Tutun quvurlari va ventilyatsiya shaxtalarining balandligi 1,5 m dan ortiq bo'lsa, ularning texnik holatini o'rganish ko'tarib ishlanuvchi moslama yordamida amalga oshiriladi.

Tomdagi ko'tarib ishlanuvchi moslamalar bog'lab qo'yiladigan zanjirlar bilan mustahkam mahkamlangan bo'lishi kerak.

7. Tomga bo'lakli materiallarni yig'ish va zarur bo'lgan taqdirda ularni qiyalikdan pastga siljishi va shamolda uchib ketishi ehtimolini bartaraf etish uchun mahkamlash kerak.

8. Shamol tezligi 7,5 m/s dan yuqori bo'lganda (5 ball), zich tuman, muz, momaqaldiroq, kuchli yomg'ir va qor paytida tomda bo'lish va har qanday ishni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tomdan materiallar, uskunalar, taralarning tushib ketishi, bo'yoqlar oqib tushishi mumkin bo'lgan zonaga odamlarning kirishini oldini olish uchun o'rganilayotgan bino balandligining  $\frac{1}{4}$  qismidan yaqinroq bo'lmagan joyda to'siqlar o'rnatish zarur.

9. Nishablari  $20^\circ$  dan yuqori bo'lgan tom tarnovlariga o'tishga faqat stropilga biriktirilgan himoya arqoni bilan xavfsizlik kamari mavjud bo'lgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

10. Doimiy to'siqlari bo'lmagan tekis tomlarning texnik holatini o'rganish uchun 1 m balandlikdagi vaqtinchalik ko'chma xavfsizlik to'ri ekranlarini o'rnatish zarur. Bunda, ekranlar tomning ustiga qisqichlar yoki boshqa asboblar bilan mahkamlanishi lozim.

11. Tashqi eshiklarda fasad ishlari olib borilganda, devorga devor sirtining qalinligiga qadar 2 m li, havozalar mavjudligida esa ularning enining kengligiga qarab 1 m li nishabi  $20^\circ$  bo'lgan pishiq, himoyalangan soyabonlar o'rnatilishi kerak.

12. Fasad shtukaturkasida (karnizda) xavf soluvchi yoriq aniqlansa va uni zudlik bilan ta'mirlash imkoni bo'lmasa, uzun tutqichli yog'och bolg'a yordamida, boshga himoya kaskasini kiygan holda yorilgan shtukaturkani urib tushirib tashlash kerak.

13. Fasadlardan shtukaturka va plitkalarni urib tushirish SHNQ 3.01.02-23ga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda, ushbu ishlar olib boriladigan hudud to'siq bilan o'ralgan bo'lishi va begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

14. Odamlar joylashishi uchun xavfli zonaning kengligi binoning balandligi 20 m gacha bo'lganda kamida 6 m, 40 m gacha bo'lganda kamida 10 m, 40 m dan katta bo'lganda esa texnik topshiriqqa muvofiq to'siqlar bilan to'silishi kerak.

Xavfli hudud aniq ko'rinadigan ogohlantiruvchi (taqiqlovchi) belgilar va yozuvlar bilan belgilanishi zarur.

15. Balandlikdagi ish joylari to'siqlar, himoya va xavfsizlik moslamalari hamda qurilmalari bilan jihozlanishi zarur. Bino hududida begona shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

16. Qavatlarga ko'tarilishga faqat ichki zinapoyalar yoki tegishli to'siqlarga ega bo'lgan narvonlar orqali yo'l qo'yiladi.

17. Qo'shimcha ko'chma narvonlardan foydalanishga yerdan yoki poldan 1,3 m dan yuqori bo'lmagan sharoitda yo'l qo'yiladi.

18. Ko'chma narvonlar siljish va ag'darilishning oldini oluvchi uskunalarga ega bo'lishi kerak.

Ko'chma narvonlarning pastki uchlarini mustahkamlashda o'tkir uchli okovkalardan, asfalt, betonlarda foydalanilganda esa rezina yoki boshqa sirpanmaydigan materiallardan foydalanish kerak. Bunda, zarur hollarda narvonlarning yuqori uchlari maxsus ilgaklarga ega bo'lishi lozim.

19. Qo‘shimcha narvondan 1,3 m dan yuqori balandlikda foydalanilganda, ko‘tarish moslamasi tashkil etilishi va bino qurilmasiga yoki zinapoyasiga biriktirilgan xavfsizlik kamarlari ta‘minlanishi kerak.

20. Xavfsizlik kamarlari va himoya arqonlariga qo‘yiladigan talablar mazkur SHNQning ilovasida nazarda tutilgan.

21. Binoni ko‘taruvchi qurilmalarda yoriqlar paydo bo‘lgan taqdirda, mayoqlar o‘rnatish yo‘li bilan ularni muntazam ravishda kuzatib turish lozim.

22. Binolarni ko‘zdan kechirish vaqtida binoni ko‘taruvchi qurilmalarning alohida joylaridan namuna olish va ochish ularning qulashiga olib kelmasligi uchun qurilmalarning ko‘taruvchi qobiliyatini zaiflashtirmasdan amalga oshirilishi lozim.

23. Ichki va tashqi devor shtukaturkasi va shiftning texnik holatini o‘rganish havoza, ko‘tarib ishlanuvchi moslama, stropochli inventar yordamida amalga oshirilishi kerak.

24. Binoni ko‘taruvchi qurilmalarni ochishda betonni sindirish, sement shuvoqni va oblitsovkani olib tashlash himoya ko‘zoynaklaridan foydalangan holda amalga oshirilishi lozim.

25. Shlyamburni ushlab turish va burash gaz kalitlari yordamida amalga oshiriladi. Bunda, shlyambur va kuvalda soz holatda bo‘lishi kerak.

26. Tashqi devorlarda yoriqlarni teshish vaqtida devorning bo‘laklari tushishi mumkin bo‘lgan hudud to‘silgan bo‘lishi kerak.

27. Mineral paxta bilan izolyatsiya qilingan bostirmalarning texnik holatini o‘rganish himoya ko‘zoynaklari, doka bog‘lamlar va xalatlardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

28. Taxta yotqizilmagan bostirmalarning texnik holatini o‘rganishda podshivkalarda turishga yo‘l qo‘yilmaydi.

29. Quduqda ishlarni amalga oshirishda quyidagi himoya va xavfsizlik anjomlari ta‘minlanishi shart:

xavfsizlik kamarlari va himoya arqonlari (kamar va arqonlar yilida ikki marta 2 kN yukka bardoshlilik sinovdan o‘tkazilishi lozim);

himoya kaskalari;

quduq chuqurligidan 2 m uzun bo‘lgan shlangli gazga qarshi niqoblar;

LBVK xavfsizlik lampalari (gaz analizatorlari);

12 V kuchlanishdagi akkumulyatorli chiroq;

qo‘l (mexanik) ventilyatori;

quduq qopqog‘ini ochish uchun ilgaklar va lom;

ilgakning (skobaning) mustahkamligini o‘rganish uchun mustahkam xoda;

“ishchilar ishlayapti” ko‘chma to‘siq belgilari va signal fonarlari;

inventar to‘siqlar (ish joylari yig‘iladigan-tuziladigan o‘rnatiladigan to‘suvi elementlari bilan);

tushib ketgan inventar asboblarini ushlab qolish uchun himoya to‘rlari;

12 V li portativ past kuchlanishli chiroq, elektr qizdirgichli chiroqlar, reflektor va himoya to‘ri.

30. Quduqda ishlashdan avval quyidagilar zarur:

ish joyi to‘siqlari va ogohlantiruvchi belgilarni o‘rnatish;

zaruriy shaxsiy himoya vositalarining mavjudligi va yaroqliligini o‘rganish;

Quduq qopqog‘ini lom (ilgak) bilan ochish va ko‘cha yoki avtotransport harakati yo‘nalishi bo‘ylab yotqizish. Quduq qopqog‘ini qo‘llar va tegishli uskunalar hamda vositalar bilan ochishga yo‘l qo‘yiladi.

31. LBVK lampalari (gaz analizatori) bilan quduqlarga tushishdan avval uning gaz bilan ifloslanishi, shuningdek ilgaklarning butligini o‘rganish kerak.

32. Quduqda aniqlangan gaz tabiiy shamollatish (ikkita yuqori va pastki quduqlarning qopqoqlarini ochish) yoki qo‘l ventilyatori bilan havo purkash yo‘li orqali tozalanadi va shundan so‘ng quduqning gaz bilan ifloslanishini qayta o‘rganish lozim.

Gaz to‘liq tozalanmagunga qadar gazga qarshi niqobsiz quduqqa tushishga yo‘l qo‘yilmaydi.

33. Quduqda yoki kamerada chekish, ularga yonib turgan gugurt, qog'oz tashlash, gaz mavjudligini aniqlash uchun yonayotgan sham (yonib turgan chiroq) ni tushirishga yo'l qo'yilmaydi.

34. Quduqqa uni gazdan to'liq tozalamasdan tushishga faqat PSH-1 gaz o'tkazmaydigan shlangli niqoblarida, quduqda har 10 daqiqada tanaffus bilan ishlash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

35. Qo'l uskunalarini maxsus qulflanadigan qutilarda saqlash va tashish lozim.

36. Qo'l arra, belkurak, bolta, bosqon, bolg'a boshqa tutqichlarga mahkamlanishi kerak.

Bolta, bosqon, bolg'alarning tutqichlari qattiq yog'ochdan tayyorlangan va po'lat pona bilan mahkamlangan bo'lishi lozim.

Tutqichlarning yuzasi qovurg'a, burchak, burmalar yoki boshqa notekisliklarsiz silliq bo'lishi kerak. Bosqon va bolg'alarning tutqichlari bo'sh uchiga qarab qalinlikka ega bo'lishi lozim.

37. Lom, belkurak, boltalar, skarpellar, arralar, zubilo (tosh tarashlovchi asbob), iskana, shlyambur va boshqa uskunalar o'tkirlangan bo'lishi shart. Arra va shlyambur tegishli tish sozalamalariga ega bo'lishi kerak.

38. Elektr lapmalarini bosim ostida burab mahkamlash va ochishga yo'l qo'yilmaydi. Agar bosimni bartaraf etish iloji bo'lmasa, mazkur ishni elektr o'tkazmaydigan qo'lqoplar va himoya ko'zoynaklaridan foydalangan holda amalga oshirish lozim.

39. Obyektlardagi elektr uskunalarini elektr tarmog'iga ulash SHNQ 2.04.17-19 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

40. Qo'shimcha zinapoyalarda elektrlangan uskunalar bilan ishlash taqiqlanadi. Ishlar kamida 1 m balandlikdagi panjara va kamida 15 sm balandlikdagi taxta bilan o'ralgan havoza yoki ko'tarib ishlanadigan moslamalarda amalga oshirilishi lozim.

41. Elektr asbobi boshqa joyga ko'chirilganda yoki tanaffus vaqtida ta'minot manbaidan o'chirib qo'yilishi lozim.

42. Yomg'ir va qor yog'ish paytida ochiq joylarda elektr uskuna bilan ishlashga faqat ish joyida shiyponlar mavjud bo'lganda va diyelektrik qo'lqoplar, kalish, gilamchalardan majburiy foydalanish sharti bilan yo'l qo'yiladi.

43. Binolarning texnik holatini o'rganishda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

yong'inga qarshi zinapoyalar bo'ylab tepaga chiqish va pastga tushish;

zinapoya, to'siqlar, ko'tarib ishlanadigan moslamalar, pol (to'shama)lar, uzangilar va to'siqlari mavjud bo'lmagan, qurilishi yakunlanmagan bino maydonining yuqorisida qurilmalarni o'rganish va materiallardan namunalar olish;

to'siqsiz yoki devorlarning ochiq teshiklari yonidan o'tadigan zinapoyalar va narvonlar orqali ko'tarilish va tushish;

muzlagan va qor bilan qoplangan zinapoyalar va narvonlar orqali ko'tarilish va tushish;

qurilishi yakunlanmagan binoning karkas elementlari bo'ylab ko'tarilish va tushish;

teshiklarga kirib chiqish, ochiq teshiklardagi deraza tokchasiga chiqish, tashqi qidiruvlar, karnizlar, to'sig'i bo'lmagan balkonlarga chiqish;

tomlardan, chodirdan yoki pajeydan asboblari va har xil materiallarni tashlash;

chirigan qurilish binolarda turish yoki unda yurish;

yuklash va tushirish zonasida bo'lish;

momaqaldiroq paytida, muzda yoki shamol tezligi 7,5 m/s dan yuqori bo'lganda tomga chiqish, nishabi 20° yuqori bo'lgan binoning tomida xavfsizlik kamarisiz va ishonchli tayanchga bog'langan himoya arqonisiz yurish;

bitta vertikal yuqorida qurilish yoki ta'mirlash ishlari bajariladigan joylarda tegishli himoyalovchi qurilmalarsiz o'rganish ishlarini amalga oshirish;

sog'liq uchun zararli sharoitlardagi xonalarda tegishli himoya vositalarisiz qolish va ishlash;

har qanday idish, quduq, kuzatish ariqlarini o'zboshimchalik bilan ochish va ularga tushish;

sun'iy yorug'lik manbai sifatida ochiq olovli chiroqlardan foydalanish.

44. Beton pollarni, temir-beton qurilmalarni ochish, qattiq gruntni haydash va boshqa ishlarni bajaruvchi ishchilar sinmaydigan shishali himoya ko'zoynaklariga ega bo'lishlari kerak.

45. Qozonxona, yoqish hududi, gazda yuruvchi qurilmalar va dudburonning tutashuvchi qismining texnik holatini o'rganishdan oldin shamollatilishi kerak.

46. Gaz asboblari (uskunalari) o'rnatilgan binolarda o'lchash va texnik holatni o'rganish binolarni doimiy ravishda shamollatgan (framugalar, darchalar ochiq bo'lishi kerak) holda amalga oshirilishi kerak.

47. Har qanday turdagi yerosti va yerusti quvur o'tkazgichlarida, shuningdek elektr kabellari, isitish batareyalari va shamollatish qutilarida turish, ularning ustida yurish yoki bir balandlikdan ikkinchisiga yurish, tortish va tushirishda tayanishga yo'l qo'yilmaydi.

48. Tarkibida tez yonuvchan va portlovchi moddalar bo'lgan materiallarni qo'llash va saqlash joyidan 50 m dan kam radiusda ochiq olovdan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

#### **4-bob. Chuqurliklar qazish ishlarini amalga oshirish va quduqlarni qo'lda burg'ulashda xavfsizlik texnikasi**

49. Odamlar va transport harakati amalga oshadigan joylarda chuqurlikni qazish himoya to'siqlari bilan to'silishi shart.

To'siqqa ogohlantiruvchi yozuvlar va belgilar, kechki paytda esa signalli yoritgichlar o'rnatish kerak. Zarur hollarda chuqurliklarning devorlari, xandaqlar inventar mahkamlagichlarga ega bo'lishi kerak, ulardan foydalanishning iloji bo'lmasa, texnik topshiriqqa asosan tayyorlangan mahkamlagichlardan foydalanish lozim.

50. Mahkamlagichlarning ustki qismi chuqurchaning chetidan kamida 0,5 m chiqib turishi kerak. Qazish jarayonidan kelib chiqib, mustahkamlagichlarni tepadan pastga qarab 0,5 m dan ko'p bo'lmagan chuqurliklarda o'rnatish lozim.

Mahkamlagichlarni yechib olish pastdan tepaga qarab chuqurni qayta to'ldirib borgan holda amalga oshirilishi kerak.

51. Ochiq quduqqa (shurf-chuqurlik) tushishdan oldin quyidagilar o'rganilishi kerak: quduqda gazlarning yo'qligi (yoqilgan LVBK chirog'ini tushirish yo'li bilan); quduq mustahkamligining to'g'riligi va ishonchligi; grunt, tosh, asfalt, g'isht, yog'och va boshqalar buyumlarning osilib turishi hamda qulab ketish xavfining yo'qligi;

quduqning atrofida gruntning yo'qligi;  
to'siqlar va ogohlantiruvchi belgilarni o'rnatish.

52. Chuqur quduqqa tushish va orqaga ko'tarilish faqat zinapoyaga qaragan holda amalga oshirilishi lozim. Tirgovichlar bo'ylab tushishga yo'l qo'yilmaydi.

53. Quduqdan olib tashlangan gruntni grunt chiqarish qirg'og'idan 0,5 m masofada joylashtirish lozim.

54. Toshloq (qoyasiz)siz va yerosti suvi sathidan yuqori bo'lgan muzlamagan grunda yaqin atrofda yerosti binolarisiz va mahkamlash vositalarisiz vertikal devorli quduqni qazishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

1 m — o'yma, qumli va yirik yanchiladigan grunda;  
1,25 m — qumloqda;  
1,5 m — qumoqli va loy grunda.

55. Quduq tuprog'ini qazishga u yerda ishlayotganlar to'silishi uchun himoya vositalari, soyabonlar o'rnatilgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

56. Quduqlarning o'lchami, ularning mustahkamligi va ularga ishlov berish hamda ko'mishdagi xavfsizlik chorolari SHNQ 3.01.02-23 ga asosan amalga oshiriladi.

57. Binoning tashqarisida quduqning qazilishi tabiiy yoki elektr yorug'ligida olib borilishi lozim.

Binoning ichida quduq qazilishi hamda unga yaqin maydonchanning yorug'likka ega bo'lmasligiga yo'l qo'yilmaydi.

58. Quduq bir nafar kon qazuvchi tomonidan kovlanganida ish joyi 0,9 m<sup>2</sup> dan, ikki nafar kon qazuvchi tomonidan amalga oshirilganda esa 1,5 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmasligi lozim.

59. Kesishma arra bilan ishlaganda qo'lni arraning qirrasiga yaqin tutish yoki arrani chap qo'lning katta barmog'i bilan boshqarishga yo'l qo'yilmaydi.

60. Quduqlarni kovlash joyi begona buyumlardan xoli bo'lishi kerak.

61. Quduqlarni soyabonlar yoki brezent chodirlar bilan yopgan holda atmosfera yog'ingarchiliklari tushishidan himoya qilish lozim. Quduqlarni iliq paytda oqava suv quvurlari ostida kovlashga yo'l qo'yilmaydi.

62. Quduqlarni kovlashda qo'llaniladigan asbobni ishlayotgan yoki ularning yonida turgan kishilarning ustiga tushib ketmaydigan qilib joylashtirish kerak.

63. Quduq devorlarida aniqlangan, grunt da zich joylashmagan va tushib ketish xavfi bo'lgan valunlar (tog' jinsining bo'laki), toshlar, g'ishtlar, asfalt, yog'och bo'laklari va boshqa buyumlarni quduqning tubiga ehtiyotkorona tushib, ularni tepaga chiqarib tashlash zarur. Tepaga ko'tarilishda quduqning ichida qolish taqiqlanadi.

64. Quduqda ishlatilayotgan asboblar, moslamalar, mahkamlash materiallarini uzatish qo'ldan-qo'lga yoki chelakka solib kanatda amalga oshirilishi lozim.

65. Quduq kovlanayotganda gruntning ostini qazishga yo'l qo'yilmaydi.

Poydevor ostini yoki dastgohlar o'rnatilgan qurilmalar, mashinalar, mexanizmlar, yuk qo'yilgan stellaj(javon)lar, tushirish ustunlari, qabul qilish ustunlari ostini qazishga yo'l qo'yilmaydi.

66. Zararli va portlash xavfi bo'lgan gazlar yig'ilishi mumkin bo'lgan joylardagi quduqlar, shuningdek quduqqa odamlar ishdagi tanaffusdan so'ng tushguniga qadar (dam olish kunlari, tungi tanaffuslar, to'xtab qolishlar va boshqalar) burg'ulash ustalari (ular yo'qligida esa — burg'ulash ishchilari) gazlanganlik darajasini (tarkibini) o'rganish kerak.

67. Tog' jinslarini chelakda ko'tarish tepada turgan ishchilarga tayanch uchun quduqning qirg'og'i oldiga yotqizilgan ostonadan amalga oshirilishi lozim.

68. Yuk solingan chelaklar ko'tarilishida chayqalmasligi va qazilgan quduq devorlariga urilmasligi kerak.

69. Chuqurligi 5 m dan yuqori bo'lgan quduqdan grunt ni chiqarish mexanizatsiyalangan holda amalga oshirilishi lozim.

70. Chuqurligi 4-5 va undan yuqori bo'lgan quduqlarning mahkamlagichlarini qismlarga ajratishga yo'l qo'yilmaydi, chunki ularning vertikal devorlari sust ushlaydigan va mahkamlagich olib tashlanganda grunt to'kilishi xavfi bo'lganligi sababli yo'l qo'yilmaydi.

71. Kotlovan (chuqur)lar, xandaqlar va quduqlarni ko'mish u yerda odamlar yo'qligida olib borilishi shart.

72. Quduqlarni qo'lda burg'ulash (koper va tushovlar(arqon)siz)ga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

chuqurligi 15 m gacha bo'lgan 70 mm to'plam bilan;

chuqurligi 12 m gacha bo'lgan 89 m li komplekt bilan;

chuqurligi 127 m gacha bo'lgan 127 m mli komplekt bilan;

chuqurligi 2 m bo'lgan (qazilgan) 127 m m dan yuqori komplekt bilan.

73. Momaqoldiroq vaqtida va kuchli shamolda burg'ulashga yo'l qo'yilmaydi.

74. Grunt sirti ostidagi shtanganing balandligi 4 m dan oshmasligi lozim.

75. Burg'ulangan quduq yer bilan bir tekisda grunt bilan tekislanishi yoki yog'och tiqin bilan yopilishi kerak.

### **5-bob. Atrof-muhit muhofazasi**

76. Binolarni rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlashda atrof-muhit muhofaza qilinishi kerak.

Bunda, hududdagi daraxt va butalar hamda yashil maydonlarga zarar yetkazmaslik, hosil bo'ladigan chiqindilarning o'z vaqtida bartaraf etilishi (olib chiqib ketish, utilizatsiya), changlar tarqalishini kamaytirish uchun namlatib turish tizimlaridan foydalanish kerak.

77. Binolar hamda unga tegishli obyektlarda "yashil bog'" va "yashil belbog'"lar barpo etish, ko'kalamzorlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi lozim.

78. Daraxt va butalar ekilgan maydonlarda sug'orish tizimlari ko'zda tutilishi lozim.

79. Binolarni rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlashda atrof-muhitning qattiq maishiy chiqindilar bilan ifloslanishini oldini olish maqsadida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va vaqtincha saqlash uchun mo'ljallangan maxsus chiqindi qutilari o'rnatilishi kerak.

Bunda, ushbu chiqindi qutilari qulay bo'lgan joyga o'rnatilishi, piyodalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va bolalar aravachalari hamda velosipedlar harakatiga xalaqit bermasligi, toza va soz holatda saqlanishi kerak.



## **ARQONLI QUTQARUV (HIMOYA QILUVCHI) KAMARLARINING YAROQLILIGINI O‘RGANISH VA ULARNI SINOVDAN O‘TKAZISH**

1. Kamarlarning yaroqlilik darajasini tashqi ko‘zdan kechirish va sinovdan o‘tkazish orqali aniqlanadi.
2. Tashqi ko‘zdan kechirish har kuni, ishdan oldin ham, ishdan keyin har bir qo‘llanishdan keyin ham olib boriladi. O‘rganish kamar va arqon biriktirilgan ishchi tomonidan amalga oshiriladi.
3. Kamar qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan asosiy nosozliklar va shikastlarga quyidagilar kiradi:
  - kamar tasmalari va yelka tasmalarining shikastlangani (kattaligidan qat’i nazar, ulardagi yirtiq yoki kesilgan joy);
  - mahkamlash kamarlarining shikastlanishi (kattaligidan qat’i nazar, ulardagi yirtiq yoki kesilgan joy);
  - mixparchinlarda shaybalarning yo‘qligi;
  - material mixparchinlarining yirtig‘i (kamar tasmasi, yelka tasmasi yoki tasmalar).Qayd etilgan shikastlanishlarning kamida bittasi mavjud bo‘lsa ham, kamar yaroqsiz hisoblanadi.
4. Mos kelmagan o‘lchamdagi kamarni ishlatish, shuningdek, kichraytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.
5. Qutqaruv kamarlari uchun karabinlar (prujinali ilgak)larning yaroqlilik darajasi tashqi ko‘zdan kechirish va sinovdan o‘tkazish orqali aniqlanadi.
6. Karabinlarning tashqi ko‘zdan kechirilishi arqonni o‘rganish bilan bir vaqtning o‘zida olib boriladi.
7. Karabin yaroqsiz deb hisoblanadigan asosiy nosozliklar va shikastlarga quyidagilar kiradi:
  - karabin ochilganida uning zatvorining yedirilishi (zatvor ochilmaydi);
  - zatvorni sharnirli mahkamlash joyidagi yupqaligi va bo‘rtib chiqqanligi; zatvor prujinasining bo‘shligi;
  - karabin sirtida g‘adir-budur va uchli o‘yiqning mavjudligi.
8. Qutqarish arqonlarining yaroqlilik darajasi tekshiruv va sinovdan o‘tkazish orqali aniqlanadi.
9. Arqonni foydalanishga yaroqsiz deb tan olishga asos bo‘luvchi nosozliklar va shikastlarga quyidagilar kiradi:
  - iplarning sezilarli darajadagi uzilishi (15 — 20);
  - arqonning kulrangligi va u egilgan yoki buralib qolganda g‘ichirlagan tovushning chiqishi;
  - arqonning namligi.Arqonning namligi aniqlanganda u quritilishi zarur.
10. Ishlatilayotgan arqonning uzunligi balandlikda, quduqlarda, kotlovan va xandaqlarda ishlash sharoitlariga mos kelishi lozim. U quduq, kollektor va boshq.ning uzunligidan kamida 2 m uzun bo‘lishi kerak.
11. Karabinlar uchun halqali qutqaruv kamarlari quyidagi tarzda sinovdan o‘tkaziladi.
  - Kamar statik bosimning chidamligiga tekshirib ko‘riladi, buning uchun sinalayotgan kamarning halqasiga 200 kg og‘irlikka ega bo‘lgan yuk mahkamlanib, 5 daqiqaga osilgan holatda qoldiriladi. Yuk tushirilganidan so‘ng kamarda hech qanday shikastlanish izlari qolmasligi kerak.

Sinovlar yiliga ikki marta o'tkazilishi kerak.

12. Kamarli karabinlar quyidagicha sinab ko'riladi. Karabin statik bosimning chidamligiga tekshirib ko'riladi, buning uchun sinovdan o'tkazilayotgan karabinga 200 kg bo'lgan yuk mahkamlanadi. Ochiq zatvordagi osilgan karabin yuk ostida 5 daqiqaga qoldiriladi.

Yuk tushirilganidan so'ng karabinning shakli o'zgarmasligi lozim. Karabinning bo'shagan zatvori o'z joyiga to'g'ri va bermalol qaytishi lozim.

13. Qutqaruv arqonlari statik bosimning chidamligiga sinab ko'riladi. Buning uchun butun uzunligi bo'ylab osib qo'yilgan arqonga 200 kg og'irlikdagi yuk mahkamlanadi va aynan shu holatda 15 daqiqaga qoldiriladi. Arqonning uzunligi sinov boshlanishidan oldin va tugaganidan so'ng o'lchanadi.

Yuk olinganidan so'ng arqonda hech qanday shikastlanishlar bo'lmasligi lozim. Arqonning qo'yilgan yuk tufayli cho'zilib ketishi uning dastlabki uzunligining 5 foizdan oshmasligi lozim.